Dastlabki ma’lumotlar

# 2022– yilning yanvar–iyun oylarida Jizzax viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022– yilning yanvar–iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 7 612,1 mlrd. so‘mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 102,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 7 413,6 mlrd. so‘mni (102,3 %), o‘rmon xo‘jaligi – 141,9 mlrd. so‘mni (102,3 %), baliqchilik xo‘jaligi – 56,6 mlrd. so‘mni (107,9 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Jizzax viloyatining ulushi 5,8 % ni tashkil etdi.



**7 612,1** — Jizzax viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m

01 — **7 413,6** — Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02 — **141,9** — O‘rmon xo‘jaligi

03 — **56,6** — Baliqchilik xo‘jaligi

# Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati




# Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot(xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



2022– yilning yanvar–iyun yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 97,4 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 1,9 % i – o‘rmon xo‘jaligi, 0,7 % i – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




2022– yilning yanvar–iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Baxmal (1029,8 mlrd. so‘m) va G‘allaorol (976,7 mlrd. so‘m) tumanlariga qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Jizzax shahri (173,2 mlrd. so‘m), Yangiobod (218,6 mlrd. so‘m) va Mirzacho‘l (377,0 mlrd. so‘m) tumanlarini keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (102,3 %) yuqori o‘sish sur’atlari Forish (106,4 %), G‘allaorol (104,8), Arnasoy (103,5 %), Mirzacho‘l (103,2 %) tumanlari va Jizzax shahrida (102,5 %) kuzatildi. Zomin (100,3 %), Yangiobod (100,7), Zafarobod va Do‘stlik (100,8 %), Zarbdor (101,1 %) tumanlari esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

## Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2022– yilning yanvar–iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 7 358,5 mlrd. so‘mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 102,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 2180,5 mlrd. so‘mni (99,9 %), chorvachilik mahsulotlari – 5 178,0 mlrd. so‘mni (103,1 %) tashkil qildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

**29,6 %**
**Dehqonchilik mahsulotlari**



**70,4 %**
**Chorvachilik mahsulotlari**

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hudududlar kesimida taqsimlanishi (%)




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 73,3 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 23,5 % i – fermer xo‘jaliklariga, 3,2 % i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




2022-yilning yanvar–iyun oylari yakuniga ko‘ra yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Mirzacho‘l tumanida (48,8 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Jizzax shahrida (96,5 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Zomin tumanida (6,1 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Jizzax shahrida (0,9 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Mirzachul tumanida (45,8 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Baxmal tumanida (0,2 %) qayd etildi.

## Dehqonchilik

2022– yilning yanvar–iyun oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 2180,5 mlrd. so‘mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 99,9 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 29,6 % ni tashkil qildi.

## Sabzavotlar

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**









2022– yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 60,7 ming t. sabzavotlar (2021– yilning yanvar–iyuniga nisbatan 4,0 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 65,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Jizzax viloyati bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna



## Chorvachilik



2022– yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 5178,0 mlrd. so‘mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 103,1 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 70,4 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2022– yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 89,7 ming t. go‘sht (2021– yilning yanvar-iyuniga nisbatan 1,6 % ga ko‘p), 291,7 ming t. sut (2,3 % ga ko‘p), 165,4 mln. dona tuxum (26,4 % ga ko‘p), 3,2 ming dona qorako‘l teri (4,5 % ga ko‘p) yetishtirildi va 3 655,3 t. baliq (7,5 % ga ko‘p) ovlandi.

# Go‘sht *(tirik vaznda)*












2022– yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 89,7 ming t. go‘sht (2021– yilning yanvar–iyuniga nisbatan 1,6 % ga ko‘p) yetishtirildi. Go‘sht yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht yetishtirish umumiy hajmidan 97,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



## Jizzax viloyati bo‘yicha go‘sht *(tirik vaznda)* yetishtirish hajmi, tonna



# Sut

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2022– yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 291,7 ming t. sut (2021– yilning yanvar–iyuniga nisbatan 2,3 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 97,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Jizzax viloyati bo‘yicha yetishtirilgan sut hajmi, tonna



# Tuxum

**Hajmi, mln. dona**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 165,4 mln. dona tuxum (2021– yilning yanvar–iyuniga nisbatan 26,4 % ga ko‘p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 46,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Jizzax viloyati bo‘yicha yetishtirilgan tuxum hajmi, ming dona



# Baliq












2022– yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 3655,3 t. (2021– yilning yanvar–iyuniga nisbatan 7,5 % ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 58,0 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keldi.



**Jizzax viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, tonna**



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2022– yining 1–iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,9 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 91,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 2,8 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 18,8 % i fermer xo‘jaliklariga, 67,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 13,3 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g’ri keladi, otlar umumiy sonidan 23,5 % i fermer xo‘jaliklariga, 59,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 16,9 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 6,9 % i fermer xo‘jaliklariga, 51,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 41,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

2022– yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 916,3 ming taga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 20,7 ming taga (2,3 %) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 91,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Jizzax viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh



2022– yilning 1–iyul holatiga koʻra, sigirlarning umumiy bosh soni 261,4 ming taga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xoʻjaliklarda sigirlar bosh soni – 7,0 ming taga (2,8 %) koʻpaydi.

## Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**Oʻsish sur’ati**




**Jami bosh sonining xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi**




**Fermer xoʻjaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari**

**Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning 1–iyul holatiga koʻra, sigirlar bosh soni toʻgʻrisidagi ma’lumotlar xoʻjalik toifalari boʻyicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 90,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklariga toʻgʻri kelishi kuzatildi.



## Jizzax viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2022– yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 270,3 ming taga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 56,4 ming taga (2,5 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar














2022– yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 67,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Jizzax viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2022– yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 29 413 taga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 2 152 taga (7,9 %) ko‘paydi.

## Otlar

**Soni, bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 59,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Jizzax viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



2022– yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 3702,2 ming taga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 536,1 ming taga (16,9 %) ko’paydi.

## Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Jami bosh soninng xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 51,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Jizzax viloyati bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'limi

- 72-221-51-17
- 72-222-81-40